

**ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING INKLYUZIV  
TA’LIMI VA IJTIMOIYLASHUV MEXANIZMLARI**

***Boyirova Madina Aliyevna***

*O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili  
1-fakulteti 2-kurs talabasi, [madinaboyirova16@gmail.com](mailto:madinaboyirova16@gmail.com)*

***Ilmiy rahbar: M.M. Murtozayeva***

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada alohida yordamga muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ta’lim jarayoniga samarali integratsiyani ta’minlashda inklyuziv ta’lim konsepsiyasining ahamiyati ochib berilgan. Inklyuziv ta’lim barcha bolalar, jumladan, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun teng imkoniyat va qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan ta’lim modeli sifatida tavsiflanadi. Maqolada inklyuziv ta’lim konsepsiyasining mazmun-mohiyati, uning asosiy qoidalari va pedagogik jarayonlarda qo‘llanilishining samarali usullari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** inklyuzif ta’lim, konsepsiya, pedagogik jarayon, alohida yordamga muhtoj bolalar, teng imkoniyatlar, mahsus ehtiyojlar.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berishga oid keng islohotlar olib borilmoqda. Ularni ijtimoiy jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar imkoniyati cheklangan bolalar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta’lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish ko‘zda tutilmoqda. Natijada inklyuziv ta’limni tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini, o‘ziga xos imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish, u bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda.

Inklyuziv ta’lim usuli barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat’iy nazar ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, u alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo‘lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo‘lib ulg‘ayishi, o‘z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko‘nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, umumta’lim maktablarida sog‘lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o‘qiy olishi, ular bilan o‘zaro do‘stona munosabatga

kirishishi, darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishi, topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar tug‘diradi. Inklyuziv ta’limning o‘ziga xos samaradorligi shundaki, uni oiladan, maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan uzluksiz ta’lim jarayonida yo‘lga qo‘yish uchun zaruriy pedagogik-psixologik yondashuv yo‘llarini aniqlab olishdir. Inklyuziv ta’lim nafaqat nogiron bolalar o‘rtasida, balki sog‘lom turmush tarziga asoslangan oilada tarbiyalanayotgan bolalar o‘rtasida, maktabgacha ta’lim fanlarni o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay imkoniyatlar yarata oladi. U orqali o‘quvchilarning bir-biriga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish natijasiga erishish mumkin. Ba’zan sog‘lom bolalar bilan nogiron bolalar orasidagi tafovut sezilib qolishi, nogiron bola o‘z tengdoshlariga qo‘shilmay, tortinishi, o‘z imkoniyatlaridan foydalana olmasligi sabab uyali turishi, kamsitilishi, ayrimlari esa oilada haddan tashqari erka o‘stirilganligi tufayli qaysarlik, injiqlik qilishi kuzatiladiki, bunday sharoitda ta’lim amaliyoti va ta’lim xizmatlarini tashkillashtirishda o‘zgarishlar qilishga to‘g‘ri keladi. Bularning barchasi inklyuziv ta’lim jarayoni o‘ziga xos murakkabliklarga ega ekanligini va shu sohada faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari zimmasiga jiddiy talablar va mas’uliyatlar yuklashini oydinlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi xalq ta’limi tizimining uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi [2]. Jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) – Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

- uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuaallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

- xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish; xalq ta’limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag‘ bilan ta’minlashning samaradorligini oshirish;

– yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo’nalishlarini joriy etish; davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta’lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish [1].

Inklyuziv ta’lim – o’quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o’zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta’lim jarayonidir. Shuningdek, inkluziv ta’lim davlat siyosati bo’lib, nogiron va sog’lom bolalar o’rtasidagi to’siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta’limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat’i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo’naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo’shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir. Inklyuzivlik – inglizcha so’z bo’lib, “inclusif” – qo’shish, birlashtirish ma’nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo’lgan o’quvchilarni umumta’lim maktablarida sog’lom bolalar bilan qo’shib birgalikda o’qitish jarayonini ifodalaydi. Inklyuziv ta’lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o’quvchilarni sog’lom o’quvchilar bilan birgalikda o’qitishni anglatadi [3].

Inklyuziv ta’lim bir qator muhim tamoyillarga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Jumladan: inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog’liq emasligi prinsipi; har bir shaxsning his qilish va o’ylash layoqatiga egaligi prinsipi; har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi; har bir shaxsning bir-biriga kerakligi prinsipi; shaxsga yo’naltirilgan ta’lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi; har bir o’quvchining o’z tengdoshlarining qo’llab-quvvatlovi va do’stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi; turli-tumanlik o’quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta’minlashi zarurligi prinsipi kabilar

Xulosa, inklyuziv ta’lim zamonaviy ijtimoiy jamiyatda har bir bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda sifatli ta’lim olishini ta’minlashga qaratilgan tizimdir. Alohida yordamga muhtoj bolalarni qo’llab-quvvatlash, ularga mos o’quv muhiti yaratish va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilish – pedagogik va ijtimoiy jarayonlarning ajralmas qismiga aylanmoqda. Inklyuziv ta’limda barcha o’quvchilarni teng huquqli, qadrlangan va faollikka chorlovchi muhitda tarbiyalash orqali, insonparvarlik va bag’rikenglik tamoyillarini mustahkamlash, har bir bolaga o’z salohiyatini to’liq ro’yobga chiqarish imkonini berish maqsad qilib qo’yilgan. Mazkur jarayonni

to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish nafaqat ta’lim sifati, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va tenglikni ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Murtozayeva M.M. Umumiy pedagogika / O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Sunrise-pro, 2024. – 450 bet.
2. Murtozayeva M.M. Pädagogische Mechanismen zur Entwicklung der beruflichen Mobilität zukünftiger Manager. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. ISSN 2749-0866. 2022. Vol.2 Issue 1.5 Pedagogical sciences. <http://berlinstudies.de>
3. Murtozayeva M.M., Nizamova M.N. Umumiy pedagogika. Darslik. – Namangan: Arjumand media, 2024. – 285 b.